

## **Cholg'u ijrochilik amaliyotida o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish**

Halimaxon Hasanboy qizi Gapparova  
gapparovaxalima95@gmail.com  
O'zbekiston davlat konservatoriysi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, tarbiyaviy ish usullari yaratilgan ilmiy adabiyotlarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, XX asrning ikkinchi yarmida, texnologiya va axborotning jadal rivojlanish jarayonlari, o'quvchidlarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning eng qulay usullari, XXI asr madaniyat sohasida yangi tendensiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** professional musiqa, estetik faoliyat, repertuar, faoliyat, ijodiy fikrlash, ijrochi, musiqiy ta'lif

## **Formation of independent thinking and creativity of students in musical performance practice**

Halimakhan Hasanboy kizi Gapparova  
gapparovaxalima95@gmail.com  
State Conservatory of Uzbekistan

**Abstract:** In this article, teaching the young generation to think independently and creatively, teaching musical students to think independently and creatively in the scientific literature where educational work methods are created, in the second half of the 20th century, the processes of rapid development of technology and information, making students independent and the most convenient ways to teach creative thinking, information about new trends in the field of culture of the 21st century.

**Keywords:** professional music, aesthetic activity, repertoire, activity, creative thinking, performer, musical education

### *Kirish*

Umumiy ta'lif maktabi o'quvchilarini professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish va undan ta'sirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatining g'oyat xil musiqaviy estetik

faoliyatining asosiy bilimlariga, ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar xos bo'lmos'i kerak.

"Bir haqiqatni hyech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat - bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim", - deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoev. [1.1.]

Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish istiqlol davri o'zbek pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shunga monand tarzda ta'lim oluvchi o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

### *Materiallar va usullari*

#### Адабиётлар (адабиётлар рўйхати)

Tarbiyaviy ish usullari quyidagilarga yega bo'lishi mumkin turli darajadagi murakkablik, bu ularning turli darajalariga bog'liq umumlashtirish. Ilmiy ish texnikasini o'zlashtirish asos bo'lib xizmat qiladi qaysi bolalar o'rganish qobiliyatları va qobiliyatlarini rivojlantiradilar. O'qitishni osonlashtiradigan texnikalar tizimi mavjud. [2.9.]

- o'rganilgan texnikani o'quv vazifasidan yangisiga o'tkazish;
- ilmiy ishlarning yangi usullarini izlash;
- sizning o'quv faoliyatizingizni boshqarish;

Hozirga qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish borasida garchi yo'1 - yo'lakay bo'lsada, turlicha qarashlar mavjud. Masalan bazi bir olimlarning fikricha, ijodiy fikrlash malakasin shakllantirish uchun o'quvchilarining bilimini anglab o'tish imkoniyatlarini rivojlantirib turli ilmiy axboratlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdag'i musiqiy mashg'ulotlardan foydalanish mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida, texnologiya va axborotning jadal rivojlanishi davrida o'qituvchilardan talabalarga bilimlarni uzatishning yangi usullari va usullariga yehtiyoj paydo bo'ldi. 50-yillarda rus pedagogikasida dasturlashtirilgan ta'lim paydo bo'ldi, bu shaklda talabalarning maxsus qayta ishlangan o'quv materiallari bo'yicha mustaqil ishlarining alohida turi hisoblanadi. [3.11.]

### *Natijalar*

Musiqiy ta'limning taniqli metodistlari fikricha, avval o'quvchilarga tinglash uchun repertuar tanlash, muayyan musiqiy asarni ajratib olish, ajratib olingen asarni namunali ijrosi namoyish etilishi tavsiya qilinadi. Biroq olimlar o'quvchi ijrosi

namunadagi ijro bilan qiyoslanib o'quvchiga zarur maslahatlar berilishi lozimligini e'tibordan chetda qoldirishgan. Bizningcha, tanlangan repertuарdagi musiqiy asar o'quvchi tomonidan ijro etilganda asarning har bo'limi namutsnaviy ijro bilan bosqichma - bosqich qiyoslanib borishi lozim. Shundagina o'quvchi o'zining kamchiliklarini tez ilg'ab oladi. Mutaxassislarning fikricha, musiqa savodi darslarida o'quvchilarini tasavvur va afakkur qilishlari uchun o'qitishning ikki asosiy yo'nalishi mavjud. Ular besh chiziqli notada ko'p ishlatiladigan shartli musiqa belgilarini puxta o'zlashtirish, melodiya, ritm, interval,akkordlar milliy musiqaning asosiy shakli, dirijyorlik malakasini shakllantirish. Mutaxassis tomonidan alohida ko'rsatilgan belqlar musiqiy ta'lim uchun umumiy xarakterga ega. Bundan tashqari mutaxassis ta'kidlagan "Tasavvur va tafakkur, xyol" ning shakllanishi degan gap. To'g'ri, tadqiqotchi tomonidan qayd etilgan milliy musiqaning o'ziga xos tomonlarini tushuntrish va musiqa tinglashda asarni to'liq eshittirishdan tashqari uni qismlarga bo'lib takrorlash, musiqa savodi, qo'shiq kuylash hamda musiqa tinglashni uzviy bog'liqligini ta'minlasho'quvchilarga ijodiy musiqiy tafakkur yurita olish ko'nikmalarini shakllantirishga xzmat qilishi mumkin. Biroq bu jarayonda ham turlicha aniq metodik yondoshuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Musiqa qulog uning ishtirokini talab qiladigan faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bu kerak, birinchi navbatda, asbob bilan ishslashning tinimsiz yeshitish nazorati bilan davom yetishini ta'minlash. Mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi doimiy ravishda musiqiyning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilishi kerak qulog va, avvalambor, ichki va ohangdor yeshitish. [4.15.]

Musiqa darslarida o'quvchidlarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning eng qulay usullaridan biri musiqa mashg'ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quyidangicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi musiqa darlarini o'quvchi tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlarga jratishi zarur. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda o'quvchilarining muksiqaga faniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi hamda ijro taqqoslashdan borat bo'ladi. Ayniqsa, darsning uchinchi - ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchi yoki o'qituvchining o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Ijro o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namundagi ijro bilan taqqoslanib ta'kidma - ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlil qitlinmog'i zarur. Musiqa ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ustida mustaqil ishslashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishiga undaydi.

Yangi asarni tahlil qilish va uni yodlash paytida, mustaqil tadqiqotlar uchun yertalabki soatlarni tanlash tavsiya yetiladi va o'rganganlaringizni birlashtirish uchun kechqurun. Ishga ijodiy yondashing ovoz, ibora, nuanslar, pedalizatsiya; turli xil narsalarni topping va taqqoslang muallifning matniga zid bo'limgan variantlar. [5.20.]

### *Munozara*

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim doirasidagi bilimlarni hamma o'quvchi bir xilda o'zlashtira olmaydi. Chunki ularning musiqiy asarni anglash, musiqiy janrlarga munosabati turlicha. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda yuqoridagi ijro va qiyoslash metodidan foydalanishgan oldin ta'lim oluvchilarni ham muayyoyan guruhlarga ajratish ya'ni tabaqalashtirish lozim. O'quvchilar bilan yakka holda mashg'ulotlar olib borishda yuqorida tavchiya etilgan ijro va qiyoslash metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday mashg'ulotlarda yakka holda ishtirok etuvchi o'quvchini uning mahoratidan, o'zlashtirishning darajasidan qat'iy nazar o'qituvchi o'ziga ruxan ergashtirish, o'zining professional ijrosi bilan avvalo, uni qoyil qoldirish ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ijrochining shakllanish jarayoni, uning uslubi, usullari badiiy va yestetik hodisalarni fikrlash va bilish uning san'at olamini anglashidan boshlanadi. Ijrochining vazifasi musiqiy asarning yestetik mazmunini ochib berish va uning tovush tuzilmalari va shakli bilan ichki aloqasi, bastakorning niyatini iloji boricha aniqroq yetkazish, asl talqinni yaratishda, zamonaviy qirralarini ta'kidlash uchun musiqiy tarkibga e'tibor qaratmoq lozim bo'ladi.[6.6.]

Dunyo miqiyosida XXI asr madaniyat sohasida yangi tendensiyalarni olib keldi. Ulardan biri XVIII-XIX asr an'analarini tiklashga qiziqishdir, ya'ni musiqa to'garaklari, o'quv to'garaklari an'analari, musiqiy va she'riy kechalarni rivojlantirishdir. Uyda musiqa yaratish an'analari shunday ko'tarildi bu yuqori daraja ba'zi bastakorlar dastlabki musiqiy ta'limni oilalarida olishgan. Va ularning tanlovi kasb musiqiy san'atdan uzoq edi, keyinchalik ular rus musiqa madaniyatining shon-sharafini tashkil yetdi. [7.15.]

Jamiyatni tushunishda musiqiy ta'lim faqat tor doiradagi maxsus rolni bajarishni to'xtatdi: asboblarda chalishni o'rganish va musiqiy bilimlarni olish. Mavjud vaziyat dastlabki musiqiy mashg'ulotlarga o'zgartirilgan talablarni qo'yadi. Uning vazifalari orasida insonning shoshilinch yehtiyojlarini qondiradigan boshqalar ham bor yedi. Ulardan yeng muhimini quyidagicha aniqlash mumkin: har bir insonga musiqa bilan muloqot qilishning individual usullarini topish va aniqlash imkoniyatini berish; uning tabiiy musiqiyligini ijodiy rivojlantirish; ijodiy namoyishlar uchun sharoit yaratish; ichki tinchlik va o'z-o'zini bilishni shakllantirishga yordam beradi.[8.9.]

Hozirda kun o'quv talabi o'quvchilarga ta'lim berishda: "Men o'rgataman, sen o'rgan" qabilidagi eski usullardan voz kechishni taqozo etmoqda. Endi o'quvchi dars jarayonida shunchaki tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanishi lozim. Ma'lumki, "O'zbekiston Respublikasi madhiyasi" ni tinglash va kuylash umumiy o'rta ta'lim maktablarining barrcha sinflari dasturiga kiritilgan. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilaridan Davlatimiz madhiyasini makammal va bekami ko'st kuylab bera olishlari talab etiladi. Mavzun puxta o'zlashtirish maqsadida, biz dastlab, VII sinf

o'quvchilari bilan shu borada suhbat o'tkazdik. Suhbat asnosidagi savollar o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Savollar: Davlat madhiyasi boshqa savollardan nimasini bilan farq qiladi? Uni qay darajada ijro etishadi? Madhiyamiz rkuylanganda biz qanday tuyg'ularni xis etamiz?

### *Xulosa*

Xulosa qilib aytganda o'quvchilar savollarga javob berishda imkon boricha o'z fikr tushunchalarini to'la ifodalashga harakat qiladilar. Bu jarayonda barcha o'quvchilar qatnashishlari lozim. Aks holda, 2-3 o'quvchi faollik ko'rsatib, qolganlari o'zini kamsitilgandek his qilishi mumkin. Ushbu shubhada o'qituvchi bevosita ishtirok etmasada, u suhbat ma'rosimini boshqarib boruvchi mas'ul hisoblanadi. O'quvchilar berilayotgan axborotlarni o'qituvchidan emas, balki o'z sinfdoshlaridan oladilar, bu esa ularni yanada faollik ko'rsatishga undaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- [1.] 2017 yil 25 dekabr Shavkat Mirziyoev madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan majlisi.
- [2.] О.Ю. Швецова, Г.В. Агадилова, И.Н. Хазеева, И.П. Савельева, А.А. Пицьна, С.Г. Фархутдинова, В.А. Дмитриев. Исполнительская подготовка студентов бакалавриата профиля «Музыкальное образование» Н., 2017. 9-ст.
- [3.] Е. С. Курдина. Формирование навыков самостоятельной деятельности у начинающих вокалистов в детской эстрадной студии. Екатеринбург 2019. 11-ст.
- [4.] Monografiya. Амалга ошириш жараёнининг психофизиологик хусусиятлари. 2017.
- [5.] Титова Н.А./ Фортепиано синфида талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш Мутахассислик ўқитувчилари ва талабалари учун 53.02.03 "Instrumental ижро "(турлари бўйича асбоблар). М., 2019.
- [6.] S. G. Фархутдинова. Пианино ижроилиги асослари. Н., 2017. 6-б.
- [7.] Чичова Е.В., Яровая Ю.А. "Instrumental ансамбл ижроилиги назарияси ва амалиёти" биринчи очиқ минтақавий педагогик конференсияси натижалари бўйича материаллар тўплами. Л. 2021. 15-б.
- [8.] Цапар Тatyana Александровна. Мустақил ижодий фаолият усули сифатида мусиқий ва чолғу ижроилигида тажриба орттириш. М., 2019.
- [9.] Ergasheva Gulchehra. The art of performing in the dust desert. T. "Music", 2012. Botirova, Xilola. "The practice of applying pedagogical technologies in the learning process to playing the Chang instrument." Obщestvo i innovatsii 2.3/S (2021): 330-339.
- [10.] Botirova, Khilola Tursunbaevna. "METHODS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG STUDENTS THROUGH THE UZBEK PEOPLE'S PERFORMING ART." Chief Editor.

- [11.] Botirova, Xilola Tursunbaevna. "THE PLACE OF MUSIC IN UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE." *Science and Education* 1.1 (2020): 512-517.
- [12.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 1638-1654.
- [13.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "Methods for Improving Thoretical Knowledge of Music of Elementary School Students." *International Journal on Integrated Education* 3.4: 4-10.
- [14.] Botirova, Khilola Tursunbaevna. "METHODS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG STUDENTS THROUGH THE UZBEK PEOPLE'S PERFORMING ART." Chief Editor.
- [15.] Tursunbaevna, Botirova Khilola. "The Importance of Aesthetic Education in the Formation of Performance and Creative Skills of Students in Music Lessons in Secondary Schools." *JournalNX* 7.05: 69-72.
- [16.] Botirova Khilola Tursunbaevna, & Vladimir Nojkov. (2022). PREPARING STUDENTS FOR ORCHESTRAL ACTIVITIES. Conferencea, 239-241. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/844>